

14-dars

Darsning mavzusi: Ma'nodosh, shakldosh va zid ma'noli so'zlar

Darsning ta'limiy maqsadi: O'quvchilarga ma'nodosh, shakldosh va zid ma'noli so'zlarni o'rgatish; S o'zlarga so'roq bera olish ko'nikmasini o'stirish; Talaffuz me'yorlariga rioya qila olish, bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qila olish;

Darsning tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarni insonni go'zal qiladigan kamgaplik, tartiblilik, do'stga sadoqat ruhida tarbiyalash; o'z fikrini boshqa manbalarga tayangan holda asoslay olish ko'nikmasini shakllantirish; o'zining xato va kamchiliklarini to'g'ri tushunib, o'zini nazorat qila olish va xatolarini tuzatishga harakat qilish, kattalarga, kichiklarga va o'rtoqlariga yordam berish;

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: o'quvchilarning lug'atini boyitish; talaffuz me'yorlariga, bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qila olish, mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda, o'zlashtirilgan leksik birliklarni matnda qo'llay olish.

Darsning turi: mustahkamlovchi dars

Darsning metodi: suhbat, mustaqil ish metodi, "Sinkveyn" metodi

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, so'zlar yozilgan kartochkalar, multimedia ilovalari.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- salomlashish; navbatchi axboroti; kun, oy, yil yangiliklari.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Husnixat daqiqasi:

Kichik "y" harfi ikki unsurdan tuzilgan b o'lib, birinchi elementi osti ilmoqli kichik tayoqcha shaklidan, ikkinchi elementi esa osti ilmoqli uzun tayoqcha shaklidan iborat.

Daftarga bir qator kichik "y" harfini va shu harf bilan bog'langan so'zlarni yozadilar: yangi, yulduz, y o'l, yalpiz, yalla.

Uyga berilgan 63-mashq tekshiriladi. Zid ma'noli so'zlar juftlab yoziladi.

Aqli-aqlsiz, rohat-ofat, yaxshilik-yomonlik, bilimli-bilimsiz, yorug'-qorong'i.

III. Mustahkamlash.

64-mashq yozma bajariladi. Nuqtalar o'rniga berilgan so'zlardan mosi qo'yilib ko'chiriladi.

Do'st achitib gapiradi, dushman kuldirib.

Hisobli do'st ayrilmas.

Tayyorga ayyor.

To'g'ri o'zadi, egri to'zadi.

“Sinkveyn” metodi orqali o'qituvchi do'st so'ziga ma'nodosh so'z topish topshirig'ini beradi. buning uchun o'quvchilarga quyidagi tartibda tarqatma topshiriqlar beriladi:

Do'st	
Kim?	Do'st
Qanday?	Inoq, ahil
Nima qiladi?	Avaylaydi, himoya qiladi, yordam beradi
Gap	Do'st bilan obod uying.
Ma'nodosh so'z	O'rtoq

65-mashqda berilgan gaplar o'qilib, ajratib ko'rsatilgan so'zlar ma'nodoshiga almashtirib yoziladi.

Shokir akasiga **xat** yozdi.

Nasiba **murakkab** masalani o'zi yechdi.

Toshkent-**go'zal** shahar.

Nasiba opa **erta** uyg'ondi.

Uyga berilgan **topshiriq** oson ekan.

66-mashqda taqdim etilgan maqollar ko'chiriladi. Unda ishtirok etgan zid ma'noli so'zlar aniqlanadi.

Zid ma'noli so'zlar: aqlli-aqlsiz, uzoq-yaqin, ko'p-oz, to'g'ri-egri, yaxshilik-yomonlik, nur-zulmat.

IV. Darsga yakun yasash va baholash

O'quvchilarning darsdagi ishtiroki va ijodkorligi, guruhlardagi faolligi, topshiriqlarni bajarish darajasiga ko'ra o'qituvchi tomonidan baholab boriladi. Dars yakunida umumiy baholar e'lon qilinadi va faol, bilimdon o'quvchilar rag'batlantiriladi.

V. Uyga vazifa berish.

67-mashq. Zid ma'noli so'zlar ishtirok etgan to'rtta maqol topib yozing. Shartiga ko'ra bajarib kelish topshiriladi.